

## TARJIMA VA UNING MOHIYATI

Ahmadjonova Nozima Nodirjon qizi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada biz tarjimaning nima ekanligi, uning kelib chiqishi va inson hayotida tutgan o'rni qanchalar muhimligini ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *tarjima, yozma matn, og'zaki matn, tarjimon, tarzabon, ma'no, Lorscher*

Hozirgi kunda global muloqot bilan ajralib turadigan dunyoda tillar o'rtaida axborot almashishda tarjima asosiy rol o'ynaydi. Ma'noni bir tildan boshqa tilga yetkazishning tabiiy va professional davomiyligi bo'yicha harakat qilish uchun tarjimon tarjima strategiyalari deb ataladigan ba'zi ko'nikmalarni o'rganishi kerak. Tarjimonning tarjima jarayonida duch keladigan muammolarni hal qilish vositalariga strategiyalar deyiladi. Turli olimlar tarjima aktining jihatlariga turlicha qarashgan, shuning uchun ular strategiyaning har xil turlarini belgilaydilar va tavsiflaydilar. Lorscher (1991) ta'kidlaganidek, tarjima strategiyasi tushunchasi tarjima nazariyasida kamdankam uchraydi va aniq ta'riflanmagan. Lorscherning fikriga ko'ra, tarjima strategiyasi "individ duch keladigan muammoni ya'ni matn segmentini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning ongli jarayonidir. (Lorscher, 1991). Vinay va Darbelnet tarjima qilishning faqat ikkita usulini eslatib o'tadi: to'g'ridan-to'g'ri yoki so'zma-so'z tarjima va o'zgartirilgan tarjima. Hejvovski (1992) asosiy tarjima strategiyalariga yuzaki strategiya, vaziyat ramkasini tanlash strategiyasi, ssenariy strategiyasi va sxema strategiyasini kiritadi. Hejvovski (1992) ga ko'ra, yuzaki strategiya (sintagmatik deb ataladi) ikki tilning mos keladigan sirt tuzilmalarini avtomatik bilishga asoslangan. Bu strategiya odamga o'zi to'liq tushunmagan matnlarni yoki parchalarni tarjima qilish imkonini beradi. Ssenariy strategiyasi hodisalar yoki harakatlarning odatiy ketma-ketligini bilishga asoslanadi. Uni qo'llash odatda ikkala madaniyatning haqiqatlari haqida ma'lum bilimlarni talab qiladi. Bu strategiyasi tarjimada ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi va muhim o'zgarishlarga imkon beradi.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish, suvning inson hayotidagi tutgan o'rni haqida gapirishdek muhimdir. Biz hayotimizni suvsiz tasavvur qilolmaganimiz kabi, tarjimasiz ham turli xalqlarning bir-biri bilan bo'lgan aloqasini, bu aloqasiz esa taraqqiyotni tasavvur qilolmaymiz. Professor, tarjimashunos olim G'aybullha Salomov ham bejizga " Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'imaslik g'ofillik va milliy mahdudlikka olib keladi". deya ta'kidlamagan edi. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni o'zaro bog'laydigan, ularning madaniyatini rivojlantiradigan, hamkorligiga asos bo'ladigan ko'prik sifatida qarashimiz mumkin.

Qadimda O'rta Osiyo va Eron xalqlari o'rtaida notiqlik san'ati juda rivojlangan. Notiqlarni esa " tarzabon" deb ataganlar. " Tar "- fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma'nolarni anglatadi. "Zabon "- til degani. Tarzabon – notiq, chiroyligapiruvchi,

so'z ustasi, yangi va o'tkir so'zlarni aytuvchidir. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga ega bo'lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o'z nutqlarida ulardan foydalanganlar. "Arablar kirib kelganlaridan keyin ijtimoiy hayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarni o'z ta'siriga olgani kabi, ko'pgina so'zlarni ham o'zlashtirib, arab tili qoidalariga bo'ysundirganlar. Jumladan, tarzabon so'zi ham arabcha talaffuzda tarjamon" ( yoki tarjimon ) – ga aylandi. Shundan keyin u arab tilining so'z yasalish qonuniga bo'ysunib, undan yangi ko'rinish hosil qilgan. Shunday qilib tarjimon – tarzabon so'zining arabcha tarjimasidir. Tarjima esa tarjimon so'zidan kelib chiqqan".

"Muayyan tilda og'zaki yoki yozma tarzda bayon etilgan biror-bir fikr, matnlarni bir tildan boshqa tilga o'girish jarayoni tarjima deyiladi".[3] Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Biz tarjimada fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatik hujjatlar, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari bilan ishlaymiz. Tarjima haqidagi ilk fikrlar qadim Rimda yuzaga kelgan. Aristotel, Sitseron va Goratsiyalar tarjimashunoslik sohasining dastlabki namoyandalari hisoblanadi. Ular tarjima jarayonida so'zma- so'z tarjimadan foydalangandan ko'ra, uning ma'nosini saqlashni ma'qul ko'rganlar. Keyinchalik Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya va Rossiyada tarjima haqidagi nazariy tushunchalar paydo bo'lган. Dastlabki tarjimonlar Misr, Mesopotamiyada bo'lган degan farazlar mavjud, lekin ularning kimligi va qilgan tarjimalari ma'lum emas. 1953- yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi FIT ( Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslар faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Madaniy jihatdan bog'langan iboralarni tarjima qilishda tarjimonlar bir nechta strategiyadan foydalanishlari mumkin. Madaniy jihatdan bog'langan iboralarni tarjima qilishda tarjimon birinchi navbatda hech qanday ortiqcha ma'lumotsiz faqat so'zma-so'z ekvivalentlarini taqdim etishi mumkin. Ikkinci usul so'zma-so'z tarjima qilib ba'zi qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish usulidir.Uchinchi texnika so'z ma'nosiga mos keladigan so'z bilan almashtirish orqali.To'rtinchi usul ushbu so'zlarni tushurib qoldirish orqali. Ba'zi hollarda ma'noni yetkazish uchun bir nechta strategiyalarning kombinatsiyasi kerak bo'ladi chunki ko'p hollarda ijtimoiy muhit to'g'ridan-to'g'ri aytganda tarjima emas, balki moslashtirish, tushuntirish yoki izohlashni talab qiladi

Tarjimaning quyidagi turlari mavjud:

- 1) Ketma-ket tarjima.
- 2) Vizual tarjima.
- 3) Sinxron tarjima.

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tilda og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiyl fikrlari yoki eng kamida asosiy aytilgan gaplarni tinglaydi va so'ng tinglash chog'ida yozib olingan eslatmalar yordamida nutqni tarjima qiladi. Tarjimon so'zlovchi nomida asliyatdan boshqa tilga ketma-ketlikda tarjima qilib boradi. Bu tarjima turi esa ikkiga ajratiladi. Birinchi bosqich so'zlovchining nutqini o'z ichiga oladi va bunday tarjima qilishda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchida tarjimon aytgan gaplarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi. Albatta, bu tarjima qilish uslubidayam qiyinchiliklar juda ko'p. Inson xotirasi barcha ma'lumotlarni yodda saqlab qolish imkoniyatiga ega emas. Tarjimon matnda fikrning mantiqiy zanjirini topishi va so'zlovchi nutqining semantik asosini ochib berishi muhimdir. Inson odatda 7 yoki 5 ta semantik asosni yodda saqlay olishi mumkin. Agar gapirovotgan inson tarjimonga biroz sekinlab imkon bermasa, tarjimada xatoliklar va tushib qoldirishlar yuzaga keladi. Ketma-ket tarjima qilishning 3 ta asosiy prinsipi mavjud: Anglash, tahlil qilish va qayta ifoda qilish. Anglash prinsipida so'zlar emas, balki umumiyo bo'lgan fikrlarni tarjima qilinishi muhimdir. Agar tarjimon so'zlovchining nutqidagi biron bir so'zning tarjimasini bilmasa, u bu so'zning ma'nosini kontekstdan anglab yetishi zarur. Har qanday nutqda 2 ta asosiy lahza majud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon shularni maromida bajara olsagina mukammal tarjima yaratiladi.

Vizual tarjima. Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin o'sha nutqning yozma shaklini ko'rib chiqadi. Tarjima qilish uchun ajratilgan joyda, matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qishga o'xshab emas, balki og'zaki nutq singari eshitilishi kerak. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish deb bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilib o'qishga aytildi. Vizual tarjima qilish boshqa tarjima turlariga qaraganda osonroq. Biroq, vizual tarjima qilishga qo'shimcha sifatida tarjimon so'zlovchi yozma matndan tashqariga chiqmayotganiga amin bo'lishi kerak. Tarjimaning bu shaklida, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Yozma material tarjima jarayonida yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham, tarjimon shu orada bir qancha vazifalarni bajarishi kerak:

1. So'zlovchining gaplarini to'g'ri tushunganini tekshirishi.
2. Axborotni yakunlash.
3. Tarjima qilish kerak bo'lgan matnni ko'rib tarjima qilish.

Vizual tarjima qilish har qanday tarjimonni o'qitish jarayonining asosiy qismidir. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni kelajakdagi kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tarjimaning bu usuli orqali yosh tarjimonlar tezlik va jadal tarjima qilish mahoratlarini oshiradilar. Sinxron tarjimada tarjimon tarjima qilish uchun belgilangan joyda o'tiradi va quloq eshitgich orqali so'zlovchini tinglaydi. So'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchinlar orqali tinglashadi. Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali (kar va soqovlar uchun) ham bajarilishi mumkin. So'zlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imoishorada tarjimonlar ular uchun belgilangan joylarda o'tirishmaydi, ular so'zlovchini ko'ra oladigan va boshqa qatnashchilarga ko'riva oladigan konferensiya xonasida turishadi. Hozirgi kunda sinxron tarjima maxsus moslamalar bilan bajarilyapti: delegatlar kabinada so'zlanayotgan gapni quloqchin orqali tinglab o'tirgan tarjimonlarga to'g'ridan-to'g'ri mikrofonda gapireshadi. Tarjimonlar tarjimani eshitishni istayotgan, quloqchin taqib olgan delegatlarga mikrofon orqali tarjima qilishadi. Ba'zi hollarda moslamalar mavjud bo'limasa ham, sinxron tarjima qilsa bo'ladi. Ishtirokchilardan biri so'zlaydi va bir vaqtning o'zida tarjimon tarjima qiladi.

Bu tarjima jarayoni eng qiyin tarjima qilish uslubidir. Chunki tarjimon so'zlovchining nutqini asliyatdan boshqa tilga tezlik bilan va tushirib qoldirmasdan tarjima qilishi kerak. Bunday tarjimonlar tilni a'llo darajada egallagan bo'lishlari kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat tarixining barcha tafsilotlarini ochiqoshkora o'rGANAMIZ. Hech bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlana olmaydi. U boshqa xalqlarning yutug'i, kamchiligi, tajribalarini o'zlashtirgan holda yuksaladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun esa albatta tarjima, tarjimashunoslik ilmiga bo'lgan ehtiyojni sezamiz. Tarjima tarixini o'rGANISH jamiyatda ko'p asrlar ilgari mavjud bo'lgan madaniyat va sivilizatsiyalar haqida bilish imkonini beradi. Hozirgi kunda tarjima biz uchun suv va havodek zarur, chunki ta'llim jarayonida, savdo- sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlarda va madaniy aloqalarda tarjimaning ahamiyati muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.G'aybull Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: "O'qituvchi". 1978.
  - 2.E.Ochilov. Tarjima nazariysi va amaliyoti (o'quv qo'llanmasi). Toshkent. 2012.
  - 3.E.Ochilov. Tarjima nazariysi va amaliyoti (o'quv qo'llanmasi) 7-bet.
  - 4.<https://uz.m.wikipedia.org>.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 19- maydagi PQ-5117 qarori.